


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

Joriy davrda 19 396,1 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,2 foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 653,8 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 8,5 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 144,6 foiz o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 17 742,3 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 91,5 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 116,2 foiz o‘zlashtirildi.




Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (2022- yil yanvar-dekabr)


	mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, % da	hajmga nisbatan, % da
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar	19 396,1	118,2	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	1 653,8	144,6	8,5
Budjet mablag‘idan	707,0	94,9	3,6
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	-	-	-

	mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, % da	hajmga nisbatan, % da
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari	888,9	370,0	4,6
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	57,9	68,7	0,3
Markazlashmagan investitsiyalar:	17 742,3	116,2	91,5
Korxonalar o‘z mablag‘lari	5 961,3	192,8	30,7
aholi mablag‘lari	1 915,7	117,1	9,9
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	9 756,7	99,6	50,3
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	108,6	14,5	0,6


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi, % da
(2022- yil yanvar- dekabr)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2022- yil yanvar- dekabr)



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkich korxonaga o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,4-martaga oshdi.




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
➤ Viloyat bo'yicha	19 396,1	118,2	10 645,6	106,1
shaharlar:				
➤ Navoiy	5 361,9	129,2	2 358,1	140,7
➤ Zarafshon	2 635,6	142,1	1 610,3	100,1
➤ G'ozg'on	141,9	149,2	69,7	2 m.
➤ Karmana	2 268,2	91,5	866,5	60,2
➤ Konimex	503,2	37,4	32,1	3,2 m.
➤ Qiziltepa	791,7	144,9	270,9	3,7 m.
➤ Navbahor	514,8	112,7	60,4	98,1
➤ Nurota	1 489,0	296,0	1 071,1	11,8 m.
➤ Tomdi	4 314,4	117,4	4 154,8	116,2
➤ Uchquduq	241,7	82,0	55,3	51,9
➤ Xatirchi	1 133,7	111,8	96,4	26,5

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shish sur‘atlari, % da



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da







Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd. so'm	19 396,1	1 654,4	17 741,7
<i>shu jumladan:</i> umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	8,5	91,5
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	10 054,7	554,0	9 500,7
qurilish-montaj ishlari	8 094,8	1 041,9	7 052,9
boshqa harajatlar	1 246,6	58,5	1 188,1

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da




Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo‘yicha mashina, uskunarlar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi- 51,8 foiz, qurilish-montaj ishlari- 41,7 foiz hamda boshqa harajatlar- 6,4 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 914,4 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 4,7 foiz), tog‘- kon sanoatida 328,2 mlrd. so‘m (1,7 foiz), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 13 248,9 mlrd. so‘m (68,3 foiz), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 1 216,4 mlrd. so‘m (6,3 foiz), qurilish sohasida 251,8 mlrd. so‘m (1,3 foiz), ulgurji va chakana savdo sohasida 1 22,8 mlrd. so‘m (0,6 foiz), tashish va saqlash 745,3 mlrd. so‘m (3,8 foiz) hamda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 2 568,3 mlrd. so‘m (13,3 foiz) ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan % da)




2022- yil yanvar- dekabr oylarida umumiy maydoni 899,0 ming kv.m. (2021- yilning mos davriga nisbatan 110,0 %) bo'lgan 2 393 xonadonga ega bo'lgan turar - joylar, ulardan 707,2 ming kv.m. (119,0 %) bo'lgan 2 912 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.



Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari
(2022- yil yanvar- dekabr oylari)


Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida jami 6 062,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,3 % ni tashkil etdi.






Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2022- yil yanvar- dekabr oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 437,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 108,0 % ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 23,7 % ni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da





Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2022-yil yanvar-dekabr
- 2021-yil yanvar-dekabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,2 foizi to'g'ri kelib, 2021-yil yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 2,0 foiz punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil etgan holda 2 800,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 408,3 mlrd. so'm yoki 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 44,0 foiz qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 5 654,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 136,2 foizni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki

Nodavlat mulk



Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (2022- yil yanvar-dekabr oylari)

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulk*		Davlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
Jami	6 062,6	5 654,3	100,0	408,3	100,0
Navoiy sh.	1 438,1	1 273,2	22,4	164,9	40,4
Zarafshon sh.	1 005,1	857,5	15,2	147,6	36,1
G'azg'on sh.	15,4	15,4	0,3	0	0,0
Karmana t.	668	654,9	11,6	13,1	3,2
Konimex t.	106,9	102,8	1,8	4,2	1,0
Qiziltepa t.	1 067,8	1 054,8	18,7	12,9	3,2
Navbahor t.	469,5	460,4	8,1	9,1	2,2
Nurota t.	460,5	448	7,9	12,5	3,1
Tomdi t.	98,7	94,4	1,7	4,3	1,1
Uchquduq t.	100,4	95,6	1,7	4,8	1,2
Xatirchi t.	632,2	597,3	10,6	34,9	8,5

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2021- yil, yanvar-dekabr



2022- yil, yanvar-dekabr



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 21,4 foiz tashkil etib, 2021-yil yanvar- dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 6,1 foiz punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 0,4 foiz punktga ko'payib, 55,2 foizni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2021-yil yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 5,7 foiz punktga ko'payib, 23,4 foizni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,8 foizni tashkil etdi va 2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 0,4 foiz punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,2 foiz (0,4 foiz punktga kamaydi).



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,9 foiz punktga kamaydi va 25,8 foizni tashkil etdi. Qolgan 74,2 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,9 foiz punktga ko‘paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)



Eng kam hajm (mlrd. so'm)

